

QADRIYATLAR

*Najmuddinova Sarvara,
Olimjonova Zarnigor*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining
Farg'ona Mintaqaviy filiali talabalari*

Annotatsiya: Usbu maqolada, milliy qadriyatlarimizning o'zgachaligi, milliyligi to'g'risida so'z ketib, ayni damdagi globallashuv jaroyaning milliy qadriyatlarimiz ko'rsatayotgan ta'siri va bu holatlar ko' paymasligini oldini olish yani o'chmas qadriyatarimizning manguligini saqlash borasida qiladigan ishlarimiz haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, tarbiya Milliy gadriyatlar deganda, avvalo hammamizning koz oldimizga - gizlarimizning egnida Marg'ilon atlaslari va boshlarida do'ppi-yu, yigitlarning bellerida chorsular bilan gavdalanishadi.

Aslida esa milliy qadriyatla tushunchasi g'oyat keng. Men insoning jamiyat va oiladan olgan tarbiyasi, ota-onaga, yagin garindoshlarga ko'rsatadigan hurmati, jamoat joylarida o'z harakat va muomalasini boshqara olishlik kabi fazilatlarni, qadriyatlarning boshlang'ich zinasi deb hisoblayman. To'g'ri, xalqimizda asrdan asga o'tib kelayotgan, hech qaysi yurtda uchratib bo Imaydigan qadriyatlar mavjud. Misol uchun vatanga muhabbat, ota-onaga va yaqin qarindoshlarga hurmat, o'zidan kattalarga ehtirom, o'zidan kichiklarga izzatda bolishlilik, ko'cha ko'yda haqoratli so'zlar ishlatmaslik, ayollarimizda ayollik iffat, sharm-u hayo, shuningdek qo'nish-qo'shnilarining, ojiz-notavonlarning haqqiga xiyonat qilmaslik, xayr ehsonlar qilishlik, erkaklarning ahli ayolini, oilasini asrab avaylash kabi tushunchalar bor.

Xo'sh bu qadriyatlarga hozir nechog' lik amal qilayapmiz. Bugungi kunda biz uchun muhim va gadrli bo'lgan qadriyatlarni avaylayapmizmi? Uzoqqa ketmasdan yaqin yillarga nazar tashlasak, ijtimoiy tarmoqlardagi shov-shuvlarga sababchi bo'layotgan to ylar, isrofgarchiliklar, dabdababozliklar nechog'lik to'g'ri. Axir, azaldan kamtarinlik e' zozlanmaganmidi. Oldinlari chet el kinolarida qariyalar uyini ko'rib, bizda bunday joylar yo'q deb, o' zimga tessali berar edim. Afsuski, bugungi kunda o'z ko'zlarim bilan ko'ryapman, ba'zi bir tanbal yurtdoshlarimiz o'z ota-onalarini, mardlarcha "Saxovat uylari"ga tashlab ketishmoqda, ba'zi bir razillari esa, ota-onasidan tezroq qutilish ilinjida ularga qo'l ko'tarishmoqda. Bu insonlari korib, ular bilan bir mamalakatda yashayotganligimdan to'grisi nafratlanaman. O'tmishda hozirgidek "Saxovat uylari" bolmagan nazarimda. Azaldan farzandlar ota-onasi oldidagi burchini bajarishgan, ularni gariganliklarida qadrlarini ko'klarga ko'tarishgan. Bundan

farzandlari ham ornak olib kelajakda ota-onalariga shunday munosabatda g'amxorlik gilishgan edilar. "Qush inida ko'rganini qiladi" naql shundan kelib chiqgandir. Hozir farzandlarning ota-onalariga qilgan yomon munosabatlariyu hatti-harakatlari to'g'risida har kuni ijtimoiy tarmoqlardan xabardormiz. Ba'zi bir shavfqatsiz farzandlar tomonidan mushtipar onasini yokida otasini o'ldirayotganligi eshitib yog'a ushlaydi kishi. Farzand ota-onsa ko zining gorasi, farzand olloh tomonidan berilgan ajib bir ne'mat. U hamma insonlarga ham berilmaydi, oramizda tirnoqga zorlar qancha. Ammo bugungi kunda "ota"degan nomga loyiq bo'Imagan,o" zalarini qo'shtirnoq ichida "mehribon ota" sifatida ko'rsatayotgan insonlar ham uchrab turadi. Bunday insonlar xotinlarini xiyonatda ayblab, o'z pushti kamaridan bo lgan farzandlaridan voz kechib, qon-qaqshatib yurganlar qancha. Yokida boshqa bir holat kishini ajablantiradi. Otkan arlarda ikkita jahon urushini xalqimiz boshidan kechirdi, erkaklar jang maydoniga ketishdi, ayollar esa uyda qolib ham onalik ham otalik vazifasini jon-jahdlari bilan bajarishgan. Lekin endi-chi ustida yal-yal ko'ylaklari bilan yosh juvonlarning qayerlardadir erkak ovlashlari, nikohsiz ortirib olgan farzandlarini bo'g'ib o'dirishlari, qopga solib xojatxonalarga yoki ko'cha ariqlariga tashlab ketishlari qaysi qadriyatga mos. Hayvonlarda ham yo'q bu hislat jamiyatimiz ayollarida qanday paydo bo'lyapti? Xalgimiz azaldan qo'ni-qo'shnini ulug'lab kelishgan. Bir tansiq taom pishirishsa, go'shning haggi bor deb kosada ilinishgan. Bemor bo'lganida holidan xabardor, boshlariga musibat tushganida yupanchiq bo'lishgan. Biz bugunga kelib bordi-keldi qilish tugul, yonimizda yashayotgan qo'shnimizni uning farzandlarini ham tanimaymiz. Hatto oyda yilda bir marota ota-onmizni, qarindosh-urug* holidan xabar olmaymiz. Nahotki asrlar osha unitilmagan qadriyatlar sekin asta yo'qolib borayapti. Hozirgi ayni globallashuv davrida dunyo xalqlari orasida alolqalar ortib bormoqda.

Bundan O'zbekiston ham hcetda golayotgani yoq. Biz ayni damda axborot texnologiyalari davrida yashyapmiz va doimiy tarzda internet ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanimiz yangiliklardan birinchilardan bo'lib boxabar bo'lamiz. Ularning qadriyatlarimizga, turmush tarzimiga gilayotgan ta'siridan bexabarmiz chamasi. Oiladagi mehr oqibat yo qolishiga manashu ijtimoiy tarmoqlar sabab bolmoqda. Nega deganda, hozir barcha oilalarda ota-onsa, hattoki tili chiqmagan go' daklarda ham qo'l telefonlarimavjud. Bolalar ota-onalaridan emas telefonidan maslatlar olishadi, onalar esa, bollari yig'laganda, yoking yordam kerak bo'lgan paytda ularni telefon bilan ovutishmoqda. Bunda yosh avlodning savodsiz, internet o'yinlariga mukkasidan ketgan, o'zdunyoqarishiga ega bo'lmagan, o'z kuchiga ishonmaydigan farzandlar voyaga yetmoqda. Ular bizning ming yillik qadriyatlarimizni tushunisharmi faqat telefon bilan ovoraku ular. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar jamiyatimizning boshqa bir tomoniga ham zarba berishmoqda.

Misol uchun yevropacha madaniyatning kirib kelishi. Ochiq-sochiq kiyinish, o'zga millat urf odatlari, kiyinish madaniyatining kirib kelishi bilan, o' zimizdag'i

milliylik unitilinib borilyapti. Bu holda yoshlarimizga globallashuv jaroyida sodir bo'layogan voga hodisalarini to'g'ri talqin etish, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish to'g'risida tushunchalar berish zarur. Chunki ular kelajak davomchilari, adriyatlarimizning keying iavlodlarga bus-butun saqlashiga javobgarlar. Har kuni televudiya va ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarimizni tarannum etuvchi videroliklarni ko'paytirishimiz, bollar uchun esa milliy qahramonlarimizni yanada ko'paytirib yashi fazilatlarini oshirishimiz darkor. Toki ular "BETMAN", "O'RGIMCHAK ODAM", "BARBIE" kabi chet el gahramonlariga emas, balki o'zimizning o'zbek gahramonlarimga o'shashlikni orzu qilishsin.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://kukaldosh.uz/>
2. <https://cyberleninka.ru/>
3. <https://yuz.uz/>
4. <https://www.gazeta.uz/>